

Xalqaro ko'rgazmaga tashrif

Bugungi kunda yaratilayotgan zamonaviy issiqlik energiyasidan foydalanish, elektrotexnika jihozlari, yangi elektr energiya tejamkor uskunalari bilan tanishish maqsadida 2018 yil 1 noyabr kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining "Nasos stansiyalari va qurilmalaridan foydalanish va tashxisi" ta'lim yo'nalishi 1- bosqich 126-guruh va 2- bosqich 210- guruh magistr talabalar hamda institutimizning "Suv energiyasi va nasos stansiyalaridan foydalanish" kafedrasida dotsenti R. Ergashev va "Elektrotexnika va elektroenergiya jihozlaridan foydalanish" kafedra mudiri dotsent A. Berdishev bilan birgalikda "UzEnergyExpo" nomli xalqaro ko'rgazmaga tashrif buyurdi. Ko'rgazmada asosan "Energetika, EQTM, Energiya tejamkorligi, Yoritish, Qurilish va ishlov berish uskunalari, Issiqlik va Ventilyatsiya tarmoqlariga doir ko'rgazma pavilonlarida mavjud barcha yangi zamonaviy elektrotexnika jihozlari uskunalari bilan turli xorijiy mamlakatlardan hamda o'zimizning yetakchi korxonalar tomonidan zamonaviy quyosh energiyasidan foydalanish, elektrotexnika jihozlari, yangi elektr energiya tejamkor uskunalari bilan qatnashdi. Talabalar hamda institutimizning "Suv energiyasi va nasos stansiyalaridan foydalanish" kafedrasida dos. R. Ergashev va "Elektrotexnika va elektroenergiya jihozlaridan foydalanish" kafedra mudiri dos. A. Berdishev bilan birgalikda pavilonlardagi zamonaviy elektr energiya tejamkor elektrotexnika jihozlari, uskunalari, nasos stansiyalari mo'ljallangan yangi elektrodvigatellar bilan yaqindan tanishdilar.



"Nasos stansiyalari va qurilmalaridan foydalanish va tashxisi" ta'lim yo'nalishi 1 - bosqich 126-guruh magistranti A.Muxamadjonov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov